


**“TASDIQLAYMAN”**  
**O‘zgidromet huzuridagi**  
**jamoatchilik kengashi raisi**  
  
**F.S. Agzamov**  
**2023-yil 12-aprel**

**Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim mavzusida amalga oshirilayotgan ishlar**  
**haqida Jamoatchilik kengashi majlisining**  
**2-son BAYONI**

**2023-yil 12-aprel**

**Toshkent shahri**

**Jamoatchilik kengashi raisi: F.X. Hikmatov** – O‘zbekiston Milliy universiteti  
Gidrometeorologiya fakulteti professori,

**Jamoatchilik kengashi raisi**  
**o‘rinbosari: F.S. Agzamov**

**Jamoatchilik kengashi a‘zolari:**

**K.R. Raxmonov** – O‘zbekiston Milliy universiteti  
Gidrometeorologiya fakulteti dekani;

**B.Ye. Adenbaev** - O‘zbekiston Milliy universiteti  
Gidrometeorologiya fakulteti kafedra mudiri,  
professor;

**B.M. Xolmatjonov** – Gidrometeorologiya ilmiy-  
tadqiqot instituti Iqlim o‘zgarishi bo‘limi mudiri;

**A.S. Haydarov** – Samarqand davlat universiteti  
kafedra mudiri;

**E.I. Abdulaxatov** – Gidrometeorologiya ilmiy-  
tadqiqot instituti tayanch doktoranti.

**KUN TARTIBI:**

**O‘zgidrometda “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim mavzusida amalga oshirilayotgan ishlar”** mavzusida jamoatchilik kengashi yig‘ilishi.

Yig‘ilish joriy yilning 12-aprel kuni O‘zgidromet majlislar zalida bo‘lib o‘tdi.  
Kengash vakillari hamda, O‘zgidromet mutaxassislari tomonidan  
ta‘kidlanganidek:

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan taxlikali davrda davlatimiz o'zining to'g'ri iqtisodiy-siyosiy pozitsiyasi bilan ildamlab bormoqda. Yildan-yilga amalga oshirilayotgan to'g'ri islohatlar natijasida ijtimoiy hayotimiz har sohada rivojlanib bormoqda.

2023-yilga rejalarni to'g'ri olish uchun 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida batafsil bayon etilgan. Ushbu murojaatnomada xalqimizning fikrini har bir yo'nalish bo'yicha takliflari chuqur tahlil va muhokama qilinib xalqimizning ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot yo'nalishlar va boshqa muammolar bo'yicha tizimli yechimlar rejaga kiritildi.

Prezidentning 28.02.2023 yildagi Farmoni bilan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid tasdiqlangan davlat dasturida:

- Davlat xizmatlari
- Ijtimoiy soha va uy-joy
- Ta'lim
- Sog'liqni saqlash sohasi
- Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish
- Suvni tejash
- Qonun ijodkorligi dasturlari belgilangan va bular yuzasidan muhokamalar o'tkazildi.

Ma'lumki, xalqimiz davlatdan maktab, bog'cha va shifoxonalarni ko'paytirish, ta'lim va tibbiyot sifatini oshirishni, mahallada yo'l, suv, elektr, transport muammolarini hal qilishni, ish o'rinlarini ko'paytirish, tadbirkorlikka yangi imkoniyatlar yaratishni, adolatni ta'minlash, ovoragarchilik, byurokratiya va korrupsiyani yo'q qilishni kutmoqda. Ko'tarilgan masalalar aniq va o'rinlidir. Shu bois, kirib kelayotgan yangi, 2023-yilga yurtimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili", deb nom berish muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan taklif qilindi va bir ovozdan ma'qullandi.

Yig'ilish davomida ta'lim sifatini oshirish - Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'li ekanligi, 2023-yil amalga oshiriladigan rejalarda ta'limga doir islohatlar mavjud, yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratish lozimligi ta'kidlandi.

“Najot - ta’limda, najot - tarbiyada, najot - bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”. Shu bois, O‘zgidrometda malakaviy ta’lim sifati hamda jamiyatda mutaxassis kasbining nufuzini oshirish, sharoitlarini yaxshilash 2023-yildagi eng asosiy vazifalardan biri bo‘ladi. 2022-23 o‘quv yilida Rossiya Davlat Gidrometeorologiya Universiteti (RGMU) bakalavr yo‘nalishi bo‘yicha 3 ta talaba, magistraturaga 5 ta, aspiranturaga 5 ta, O‘zbekiston va RGMU 3+2 asosida 50 ta hamda, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetiga tavsiyanoma asosida 79 ta talaba meteorologiya, iqlimshunoslik, agrometeorologiya, atrof-muhit ifloslanishi monitoringi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qishga qabul qilindi. Shu o‘rinda, mutaxassislarning maqomini, ularning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishni talabalarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligi aytib o‘tildi.

Yig‘ilish kotibi



M. Ruziyeva